

*Islamov Erkin Gayratovich**iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING SAMARALI SOLIQ MEXANIZMIGA OID
XORIJ TAJRIBALARI**

Annotatsiya: Maqolada tashqi iqtisodiy faoliyatning (TIF) samarali soliq mexanizmiga oid xorijiy tajribalar tahlil qilinadi. Jahon soliq amaliyotida qo'llanilayotgan samarali soliq vositalari va tadbirlarining mamlakatimiz soliq tizimiga moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. TIFni samarali boshqarishda qo'llaniladigan imtiyozlar, preferensiyalar, maxsus rejimlar va investitsion soliq kreditlari kabi mexanizmlar tahlil etiladi. Shuningdek, soliq nazorati va boshqaruv amaliyotida qo'llanilayotgan noan'anaviy uslublar va ularning samaradorligi ko'rsatiladi. Xorijiy mamlakatlar tajribasiga asoslanib, TIFni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: tashqi iqtisodiy faoliyat, soliq mexanizmi, xorijiy tajriba, soliq imtiyozlari, soliq nazorati, investitsion soliq krediti.

Annotation: The article analyzes international experiences related to the effective tax mechanism of foreign economic activity (FEA). It reviews the opportunities for adapting effective tax tools and measures from global tax practices to the national taxation system. Mechanisms such as tax incentives, preferences, special regimes, and investment tax credits used in managing FEA effectively are examined. Additionally, non-traditional methods applied in tax control and administration and their effectiveness are highlighted. Based on foreign practices, proposals are developed for improving the FEA taxation system and aligning it with international standards.

Keywords: foreign economic activity, tax mechanism, international experience, tax incentives, tax control, investment tax credit.

Аннотация: В статье анализируются зарубежные практики, связанные с эффективным налоговым механизмом внешнеэкономической деятельности (ВЭД). Рассматриваются возможности адаптации эффективных налоговых инструментов и мероприятий из мировой налоговой практики к национальной налоговой системе. Анализируются механизмы, такие как налоговые льготы, преференции, специальные режимы и инвестиционные налоговые кредиты, используемые для эффективного управления ВЭД. Также освещаются нетрадиционные методы налогового контроля и администрирования и их эффективность. На основе зарубежного опыта разрабатываются предложения по совершенствованию системы налогообложения ВЭД и её приведению в соответствие с международными стандартами.

Ключевые слова: внешнеэкономическая деятельность, налоговый механизм, зарубежный опыт, налоговые льготы, налоговый контроль, инвестиционный налоговый кредит.

Soliq tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda fiskal siyosatning o'rni, samarali soliq ma'muriyatchiligining zamonaviy yo'nalishlari,

jahon soliq amaliyotida tashqi iqtisodiy faoliyatning samarali soliq mexanizmiga oid xorij tajribalaridan respublikamizda keng foydalanish masalalari hozirgi kunda dolzarbdir.

Jahon soliq amaliyotining istalgan davlatiga xos tashqi iqtisodiy faoliyatning samarali soliq mexanizmiga oid u yoki bu vosita va tadbirlarini tajriba-sinov tarzida qo'llash va ulardan maqbullarini o'z amaliyotimizda foydalanishga tavsiya etish mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning samarali soliq mexanizmiga oid jahon soliq amaliyoti tajribalarining tahlili hozirgi kunda xorijiy mamlakatlar soliq tizimining to'rt xil modeli amal qilayotganligini tasdiqlaydi.

Har qanday mamlakatda tashqi iqtisodiy faoliyatning samarali soliq mexanizmida qator dastaklar (imtiyoz va preferensiyalar, maxsus rejim, chegirma va qayta hisoblashlar, investitsion soliq krediti va h.k.)dan keng foydalaniladi.

Rivojlangan davlatlar soliq amaliyotining boy ijobiy tajribalarining respublikamizga joriy etish mumkin bo'lgan jihatlarini yoritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalambor, rivojlangan davlatlarda tashqi iqtisodiy faoliyatning samarali soliq mexanizmiga oid amaliyotida hozirda bo'lgan soliq turlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda bizning soliq amaliyotimizdan farq qiluvchi, ayrim noan'anaviy soliqqa tortish obyektlari ham uchraydiki, ular bilan umumiy tarzda tanishib chiqish tadqiqimiz uchun zarurdir. Ayniqsa, tashqi iqtisodiy faoliyatning shakllari va turlari bo'yicha amal qiluvchi soliqqa tortishning samarali tadbirlari va ularning afzalliklarini jahon soliq amaliyoti tajribalari tasdiqlamoqda.

Dunyoning turli mamlakatlari soliq amaliyotida hozirgi kunda tashqi iqtisodiy faoliyatning samarali soliq mexanizmiga oid muvaffaqiyatli tarzda foydalanib kelayotgan noan'anaviy soliq turlari va soliq nazorati tadbirlarini ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

1-Jadval

Dunyoning turli mamlakatlarida tashqi iqtisodiy faoliyatni soliqqa tortishda mavjud noan'anaviy bilvosita soliq turlari va soliq nazorati tadbirlari

Xorijiy davlatlarda bilvosita soliqqa tortish obyektlari	Xorijiy davlatlar soliq nazorati amaliyotidagi noan'anaviy tadbirlar
1. Xizmat ko'rsatish solig'i	1. Soliq qonunchiligi buzilishi ustidan kompleks-nazorat (Gollandiya)
2. Dam olish uchun soliq	2. Savdo palatasi va fiskal organlar o'rtasida ma'lumot almashinuvi (Italiya)
3. Bojxona to'lovlari	3. Soliq to'lovchilarning vertikal-gorizontaal monitoringi (Gollandiya)
4. QQS	4. "Tashrif va musodara qilish" muolajasi (Norvegiya, Finlandiya)
5. Aksiz (sotish) solig'i	5. Soliq xizmati kengaytirilgan ma'lumotlar bankidan foydalanish (Finlandiya)

	6. Soliq rejimini tanlash imkoniyati bilan soliq to'lovchi individual mas'ulligi tartibini kiritish (Norvegiya)
--	---

Umuman, tashqi iqtisodiy faoliyatning samarali soliq tadbirlariga xizmat qiluvchi davlat soliq xizmatining institutsional asoslarini takomillashtirishga oid xorij tajribalarini mamlakatimiz soliq amaliyotida qo'llash imkoniyatlarini baholashda ayrim jihatlariga alohida e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, tashqi iqtisodiy faoliyatni soliqqa tortishning samarali tadbirlariga xizmat qiluvchi davlat soliq xizmatining institutsional asoslarini takomillashtirishga oid xorij tajribalarini qo'llashga doir quyidagi takliflarni maqbul hisoblaymiz:

- soliq organlarining institutsional asoslari har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeyi va ularning respublika budjetiga qo'shadigan hissasiga mos kelishi kerak;
- soliq organlariga qo'shimcha daromadlarning potensial manbalarini aniqlash va shu orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish uchun soliq to'lovchilar to'g'risidagi barcha mavjud ma'lumotlardan foydalanish huquqi berilishi kerak;
- soliq organlari faoliyati samaradorligini baholash uchun samaradorlikka asoslangan reyting tizimini joriy etish zarur;
- soliq organlari faoliyati samaradorligini baholash mexanizmini ishlab chiqish soliq to'lovchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati, qo'shimcha daromad manbalarini aniqlash va soliqqa tortish, soliqqa oid profilaktika choralarini amalga oshirish kabi mezonlarni o'z ichiga olishi kerak;
- soliq organlari faoliyati to'g'risidagi statistik hisobotlar Xalqaro valyuta jamg'armasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Xalqaro hamkorlik kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan metodologiyaga muvofiq bo'lishi kerak.

Xalqaro soliq amaliyoti sohasida davlatlar tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatga nisbatan samarali soliq choralarini qanday amalga oshirayotganligini o'rganishga katta ahamiyat beriladi.

AQSh, Fransiya, Germaniya va Shveysariya kabi turli mamlakatlarda soliq qonunlari va bojxona qoidalari soliq to'lovchilar soliq tekshiruvlari davomida inspektorlarga tegishli tushuntirishlar va asoslar taqdim etishlarini talab qiladi. Ushbu majburiyatni bajarmaslik salbiy huquqiy oqibatlar uchun asos bo'ladi.

Shveysariya, Fransiya va AQSh kabi bir qancha xorijiy davlatlar tomonidan soliqqa tortishning samaradorligini oshirish uchun qo'llaniladigan muhim strategiya soliq to'lovchilar haqidagi ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlash va maxsus ruxsatnomalarsiz davlat organlari tomonidan tizimli foydalanishni osonlashtirishni o'z ichiga oladi.

Binobarin, AQSh, Kanada, Norvegiya, Meksika, Avstraliya va Fransiya kabi mamlakatlar TIF tartibga solishning soliq va bojxona ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish zarurligini e'tirof etgani holda, soliq xizmati organlarining lavozim mas'uliyatlarini tartibga soluvchi qoidalarni qayta ko'rib chiqishni tanladi. Har bir bo'lim ushbu ehtiyojni hal qilish uchun mas'uliyat va vakolatlarni belgilab beruvchi Xizmat ko'rsatish qoidalari huquqiy jihatdan qayta tiklashni ma'qulladi.

2-Jadval

Alohida olingan xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotida davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatning samarali soliq mexanizmiga oid samarali tadbirlari¹

Mamlakatlar	Tadbirning farqlovchi xususiyati
AQSh, Fransiua, Germaniua, Shveusariua	TIFni soliqqa tortishda, soliqning stavkalari va imtiyozlarida uzoq muddatli, barqaror mexanizm amal qiladi. TIFdan olinuvchi soliqlar va to'lovlar to'lovchilarining soliq tekshiruvlari jarauonida tegishli tushuntirish va asoslarni tekshiruvchilarga uetkazib berishlarining majburiuligi belgilab qo'uylgan va ushbu talabning buzilishi qonuniu tarzda javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi
Yevrora davlatlari	Ittifoqi
Kanada	TIFni soliqqa tortishga nisbatan maxsus huququ mexanizm amal qiladi, biroq TIFdan olinuvchi QQS, aksiz solig'i va bojxona bojarining stavkalari va imtiyozlari a'zo-mamlakatlar o'rtasida farq qiladi
Avstraliua	TIFni soliqqa tortish tizimida "uashil iqtisodiuot"ni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tartib amal qiladi, TIFdan olinuvchi QQS, aksiz solig'i va bojxona bojarining stavkalari va imtiyozlari ushbu maqsadga bo'usundirilgan va milliu ishlab chiqaruvchilar manfaatlariga xizmat qiladi
Uaroniua, Janubiu Koreua	TIFdan olinuvchi QQS, aksiz solig'i va bojxona bojlari tushumlaridan alohida hududlar, ishlab chiqarish tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash uchun rag'bat sifatida foudalanish tizimining mavjudligi: tushumlarning 50 foizi ushbu maqsadlarga qauta taqsimlanadi
Xitou Resrublikasi	Xalq
	Kelgusi taraqqiuot uchun uuksak imkoniuatlarga ega bo'lishi kutilauotgan iqtisodiu qoloq hududlarga mablag' ajratauotgan TIFdan olinuvchi QQS, aksiz solig'i va bojxona bojarini to'lovchi komraniualarga uirik soliq imtiyozlari tizimining qo'llanilishi. TIFdan olinuvchi QQS, aksiz solig'i va bojxona bojlari bo'uicha to'lov intizomiga rioua qilinishini nazorat qilish tadbirlarining qat'iuligi, soliqlarni to'lashdan bo'uin tovlashga jinoiu javobgarlikning mavjudligi

Umuman olganda, jahon soliq amaliyotidagi ko'plab qulay tajribalarni hisobga olgan holda, soliq va bojxona ma'muriyatchiligining samarali usullarini joriy etish soliqqa tortish bo'yicha chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Muallif ishlanmasi.

Bizningcha, TIFni soliqqa tortishning samarali tadbirlariga oid soliq-bojona ma'muriyatchiligi islohinig strategik maqsadi soliq-bojxona ma'muriyatchiligi zamonaviy va samarali usul va vositalari asosida TIFni soliqqa tortishga oid davlat soliq-bojxona siyosatini ro'yobga chiqarish, soliq to'lovchilarning o'z soliq majburiyatlarini to'liq ado etishlarini nazorat qilish, davlat budjetiga tushumlar barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Buning uchun TIFni soliqqa tortish tizimida quyidagilarga rioya etish zarur: soliq to'lovlarining o'z vaqtida va bir xildagi tushumini ta'minlash, ma'muriy tartib-taomillarni maksimal darajada kamaytirish va soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va iqtisodiyotda xufiyona aylanmalarni qisqartirish hisobiga budjetlarning daromad qismini barqaror shakllantirish.

Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq, TIFni soliqqa tortishning samarali tadbirlariga oid soliq-bojxona ma'muriyatchiligining samarali vosita va dastaklarini hayotga tatbiq etish hozirgi kunda uning mavjud usullari tizimi (boshqarish, xabardor qilish, tarbiyalash, maslahat berish, rag'batlantirish, imtiyoz berish, nazorat qilish, undash (majburlash), jazolash)ni takomillashtirishni talab etadi.

Hozirgi vaqtda TIFni soliqqa tortish amaliyotini samarali boshqarish uchun xalqaro miqyosda qo'llanilayotgan tushunchalarni aniqlashtirish va umumiy tavsif bergan holda foydalanishga ehtiyoj bor. O'zbekistonning rivojlanayotgan davlat soliq siyosatining konseptual doirasida TIF soliqqa tortish amaliyotini chuqur va uyushqoqlik bilan o'rganish muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Bu izlanishlar mamlakatimizning jahon miqyosida munosib o'rin egallashi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu boradagi ishlarda tashqi iqtisodiy vazifalar va soliq vositalarining samarali bajarilishi asosiy o'rin tutadi. Demak, uning mexanizmini takomillashtirish samaradorlikni oshirish uchun uning tarkibiy qismlarini moslashtirish va uyg'unlashtirish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarni kafolatlaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat shakllariga oid operatsiyalarni soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirishda quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni soliqqa tortishning samarali mexanizmini shakllantirishning tizimli muammolarini bartaraf etish;

- tashqi iqtisodiy faoliyat shakllarining fiskal bazadagi ishtirokini kompleks baholash uslubiyotini taklif etish.

Darhaqiqat, TIFni soliqqa tortish amaliyotiga xos xorijiy mamlakatlar tajribasining mamlakatimiz soliq tizimi bilan qiyosiy tahlili muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, TIFdan olinuvchi QQS, aksiz solig'i va bojxona bojlari ko'pchilik xorijiy davlatlar budjeti daromadlarida muhim o'rinni egallaydi. Mazkur soliq va to'lovlardan tushumlar davlat moliyaviy resurslarining shakllanib borishida munosib o'rin egallashi lozim.

TIFdan olinuvchi QQS, aksiz solig'i va bojxona bojlarini undirish va mavjud qarzдорlikni bartaraf etish, ulardan davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning qo'shimcha manbayi sifatida foydalanishdan tashqari, alohida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish uchun zarurdir.

Xorij tajribalari fiskal soliq siyosatini amalga oshirishda mamlakatimiz uchun yangi va samarali vositalarni qo'llash zaxiralarini ham ko'rsatib berishi mumkin.

Yuqorida bayon etilgan ilmiy fikr-mulohaza hamda amaliy ko'rsatmalar transfert narxlar shakllanishi hamda global miqyosda iqtisodiyotning offshorlashuviga qarshi kurashdagi soliq nazorati samarali tadbirlarini ham kuchaytirish lozimligini tasdiqlamoqda.

Xalqaro soliqni rejalashtirish tamoyillari, qoidalari, usullarini tahlil qilish ularning ahamiyatini, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat shakllari va yo'nalishlarini soliqqa tortish darajasini optimallashtirishning turli usullari mavjudligini ko'rsatadi.

TIFni soliqqa tortish amaliyotida xalqaro soliqni rejalashtirish, offshor rejimlardan foydalanish, transfert narxlarini belgilash orqali soliqqa tortish darajasini optimallashtirish chet el kapitali oqimining ko'payishiga yordam beradi, boshqaruv faoliyatining yuqori malakali turi bo'lib, turli darajadagi manbalardan olingan keng ko'lamli ma'lumotlardan foydalanishni talab qiladi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Alcalá, F. Trade and Productivity [Text]. / F.Alcalá, A.Ciccone. // The Quarterly Journal of Economics. 2021. T. 119. № 2. P. 613-646.
2. Spartak A.N. Aktualnye problemy razvitiya vneshney trgovli i upravleniya vneshneekonomicheskimi kompleksami Rossiyskoy Federatsii [Elektronnyy resurs]. // VNIKI. 2020, noyabr. № 128. S. 1-7.
3. Pattnauak, S.S. Productivity and Learning-by-exporting: A Firm-level Analysis of Indian Manufacturing [Text]. / S.S.Pattnauak, S.M.Thangavelu. // The World Economu. 2019. T. 37. № 7. P. 1016-1026.
4. Komilov O'.T., Shoraxmedov Sh.Sh., Asqarov I.R., Komilov M.M. Bojxona tizimida boshqaruv asoslari. – T.: FTDK.DITAF. 2021– 202 b.
5. Javorcik B.S. Does foreign direct investment increase the productivity of domestic firms? In search of spillovers through backward linkages. // The American Economic Review. 2021. Vol. 94. №3. P. 605-627.
6. Sharipov F. O'zbekistonda tashqi savdoni tartibga solishda soliq siyosatini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati. – T., 2019. – 73 b.